



Korxonalar va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2018 yil 1 aprel holatiga

RAQAMLAR:

- Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni **523 taga o'sdi**
- Faoliyat ko'rsatmayotgan korxonalarning ulushi **0,7 fo'p kamaydi**
- Tugatilgan korxonalar nisbatan yangi tashkil etilgan korxonalar soni **205 taga oshgan.**

2018 yilning yanvar-mart oyida Viloyatda 396 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 86 taga kamaygan.


Shuningdek faoliyati tugatilgan korxonalar va tashkilotlarning soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan 39,9 % kamaygan hamda ularning soni 77 tani tashkil etganligini kuzatish mumkin.

Buning natijasida joriy yilning boshiga nisbatan faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 254 ta (2,0 %) ga o'sgan hamda ularning umumiy soni 9646 tani tashkil etgan.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning asosiy ulushi Guliston shahrida (31,8 %), Sirdaryo (15,3%), Sayxunobod (8,4 %) va Yangiyer (7,7 %) tuman shaxarlarida kuzatilmoqda.

Hududlar kesimida faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari), ming birlikda






Ro'yxatga o'tgan va faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari,
2018 yilning 1 aprel holatiga)

	Ro'yxatdan o'tgan		Faoliyat ko'rsatayotgan	
	birlikda	jamiga nisbatan %	birlikda	jamiga nisbatan %
Sirdaryo viloyati	10390	100,0	9646	100,0
Guliston shaxri	3309	31,8	3065	31,8
Sirdaryo tumani	1634	15,7	1474	15,3
Sayhunobod tumani	827	8,0	814	8,4
Yangiyer shaxri	798	7,7	738	7,7
Guliston tumani	788	7,6	728	7,5
Mirzaobod tumani	749	7,2	703	7,3
Boyout tumani	792	7,6	745	7,7
Xovos tumani	507	4,9	457	4,7
Oqoltin tumani	382	3,7	360	3,7
Sardoba tumani	358	3,4	340	3,5
Shirin shaxri	246	2,4	222	2,3

Korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida faoliyat ko'rsatayotganlar va faoliyatsizlarning ulushi, % da




Korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida faoliyat ko'rsatayotganlarning ulushi 92,8 % ni, shu bilan birga jami korxonalar va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan faoliyat ko'rsatmayotganlarning ulushi 7,2 % ni tashkil etganligini ko'rsatmoqda va bu ko'rsatkich esa yil boshiga nisbatan taqqoslanganda 0,1 f.p. kamaygan.


faoliyat ko'rsatayotganlar
 faoliyatsizlar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan 25,9 % savdoda, 11,7 % sanoatda, 8,7 % qurulishda, 12,0 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, 5,5 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda, 5,8 % tashish va saqlash, 1,7 % axborot va aloqa, 1,3 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish va 27,4 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari) % da




Ro'yxatdan o'tgan va faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning o'sish dinamikasi




2018 yil yanvar-mart holatiga 396 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etilgan. Bu esa 2017 yilning shu davriga nisbatan qaraganda 17,8 % ga kamaygan. Eng ko'p yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar Guliston shaxrida (105 ta), Sirdaryo (55 ta), Sayhunobod (37 ta) va Guliston tumanlarida (33 ta) tashkil etilgan. Eng kam Shirin shaxrida (10 ta), Sardoba (17 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning soni, birlikda



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'pi savdoda (106 ta), sanoatda (65 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (76 ta) va qurilishda (45 ta) tashkil etilgan. Eng kam esa axborot va aloqada (4 ta), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (4 ta) va tashish va saqlashda (11 ta) tashkil etilgan.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimidagi soni, birlikda



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'tgan yilning shu davriga nisbatan faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining ulushi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda (-1,1 f.p), axborot va aloqada (-0,3 f.p.dan) kamayganligi, buning natijasida, savdoda (0,0 f.p), tashish va saqlashda (0,2 f.p.), boshqa faoliyat turlarida (1,2 f.p), sanoatda (+0,7 f.p.), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (+0,5 f.p.), qurilishda (+3,6 f.p.), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda (+0,7 f.p.), ulushining o'sishiga olib keldi.


Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'tgan yilning shu davriga nisbatan ulushi, foiz punktda

Iqtisodiy faoliyat turlari nomi	01.04.2018 y.	01.04.2017 y.	farqi (+-)
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	25,9	26,7	-0,8
Savdo	1,3	2,6	-1,3
Axborot va aloqa	1,7	2,0	-0,3
Sanoat	5,5	4,9	0,6
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	5,8	5,7	0,1
Qurilish	12,0	11,8	0,2
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	11,7	11,3	0,4
Tashish va saqlash	8,7	8,1	0,7
Boshqa turlari	27,4	26,9	0,5

Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo'yicha faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarining umumiy soni (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari).

2018 yil 1 aprel holatiga 7736 ta tijorat shaklidagi korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, shundan xususiy korxonalar – 2799 ta, oilaviy korxonalar – 70 ta, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar – 4563 ta, aktsiyadorlik jamiyatlar – 20 tani va boshqalar 126 tani tashkil etadi.


Faoliyat ko'rsatayotgan yuridik shaxslar-xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning tashkiliy huquqiy shakllari bo'yicha taqsimlanishi, birlikda




Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

2018 yil 1 aprel holatiga faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 83 tani tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 14 taga yoki 16,9 % ga o'sgan. Shuningdek Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalaridan 61 tasi qo'shma korxonalar, 22 tasi esa xorijiy korxonalar hisoblanadi.

Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tarkibida qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalarning soni, birlikda




Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda




Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining asosiy qismi Sirdaryo tumani 34 ta (41,0 %i), Guliston shaxri 19 ta (22,9 %), Yangiyer shaxri 9 ta (10,8 %) his-salariga to'g'ri keladi. Eng kam xorijiy kapital ishtirokida tashkil etilgan korxonalar Xovost tumani 1 ta (1,2 %), Sardoba tumani 1 ta (1,2 %), Guliston tumani 1 ta (1,2 %) hissalariga tog'ri keladi. Bu esa mazkur hududlarda xorijiy hamkorlar bi-lan ishlashni, investitsiyalar jalb etish borasida amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlarni yanada rivojlantirishni talab etadi.

Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining hududlar kesimidagi soni, birlikda



Agar faoliyat yuritayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ushbu ma'lumotlarni 2018 yil 1 aprel holatiga ko'rsak eng ko'p sanoatda 60 ta (72,3 %), savdoda 9 ta (10,8 %), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida esa 4 ta (4,8 %) tashkil qilgan, eng kamlari esa tashish va saqlashda 3 ta (3,6 %), boshqa tarmoqlar 3 ta (3,6 %), va qurilishda 4 ta (4,8 %) tashkil qilgan. Shundan ko'rinib turibdiki faoliyat yuritadigan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turiga to'g'ri kelarkan. Shuningdek tashkil etilmaganlar, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda axborot va aloqa faoliyat turlariga to'g'ri keladi.

Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da




2018 yilning yanvar-mart oyida xorijiy kapital ishtirokidagi ro'yxatdan o'tgan yangi korxonalarining soni 4 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1 taga ko'paygan.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, asosan sanoatda 4 ta, korxonalar yangi tashkil etilgan.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar soni


2018 yil 1 aprel holatiga Viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning soni 7683 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich 2017 yil 1 aprel holatiga qaraganda 8,5 % ga oshgan. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi ya'ni 2618 tasi (34,1 %) Guliston shahriga, 1227 tasi (16,0 %) Sirdaryo, 648 tasi (8,4 %) Sayxunobod tumanlari his-salariga to'g'ri keladi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar soni dinamikasi, birlikda




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan jami 7683 ta kichik korxonalar va mikrofirmalarning 2489 tasi (32,4 %) – savdoda, 1107 tasi (14,4 %) - sanoatda, 838 tasi (10,9 %) - qurilishda, 1135 tasi (14,8 %) - qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, 531 tasi (6,9 %) - yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida, 550 tasi (7,2 %) - tashish va saqlashda, 152 tasi (2,0 %) - axborot va aloqa sohasida, 75 tasi (1,0 %) - sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda, shuningdek 806 tasi (10,5 %) - boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi. Shundan ko'rinib turibdiki, faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turlariga to'g'ri keladi. Shuningdek, eng kam ulushi esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda axborot va aloqa faoliyat turlariga to'g'ri keladi.

Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



2018 yil yanvar-mart holatiga 362 ta yaqin kichik korxonalar va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa 2017 yilning shu davriga nisbatan qaraganda 23,6 foizga kamaygan. Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar Guliston shahrida (88 ta), Sirdaryo (49 ta), Sayxunobod (37 ta) va Guliston tumanlarida (30 ta) tashkil etilgan. Eng kam Shirin shahrida (10 ta), Sardoba (15 ta) tumanida tashkil etilgan.


Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'pi sanoatda (65 ta), savdoda (106 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (76 ta) va qurilishda (45 ta) tashkil etilgan. Eng kam esa axborot va aloqada (4 ta), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (4 ta) hamda tashish va saqlashda (11 ta) tashkil etilgan.



Oilaviy korxonalar soni


Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tgan oilaviy korxonalar soni - 2018 yilning 1 aprel holatiga 77 tani tashkil etib, ulardan 70 tasi yoki 90,9 % faoliyat yuritadi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda davlat ro'yhatidan o'tganlarning hamda faoliyat ko'rsatayotganlarning umumiy soni o'rtacha 17,6 %ga oshganligini ta'kidlash lozim.

Oilaviy korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda



Faoliyat ko`rsatayotgan oilaviy korxonalarining Iqtisodiy faoliyat turlari ke- simida qaralganda oilaviy korxonalarining 42,9 % yoki 30 tasi sanoat, 17,1 % yoki 12 tasi savdo, 15,7 % yoki 11 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 14,3 % yoki 10 tasi qishloq, o`rmon va baliq xo`jaligi, hamda 10,0 % yoki 7 tasi boshqa faoli- yat turlari hissasiga to`g`ri kelmoqda.

Faoliyat ko`rsatayotgan oilaviy korxonalarini iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



Viloyat statistika boshqarmasi
Statistik registrlarni yuritish bo'limi
boshlig'i

Nashr uchun mas'ul: **K.Yusupov**
(0367) 225-31-00

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat
registri (KTYDR) ma'lumotlari asosida
tayyorlangan